

TILNI O'QITISHDA VIZUAL VOSITALARDAN FOYDALANISH
MASALASINING MAHALLIY VA XORIJIY MANBALARDA YORILISHI

Abdiyeva Xonzodabegim Turdiboy qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya; *Ushbu maqolada tilni o'qitishda visual vositalardan foydalanish masalasiga to'xtaldi. Shuningdek, bugungi kunda nafaqat ona tili ta'limida visual vositalardan foydalanish masalasi nazariy jihatdan asoslab berilganligi, balki uning amaliyotdagi tatbiqi turli darajada amalga oshirilibotgani haqida ham chuqur tahlili ham o'z ifodasini topdi.*

Maqolada bo'lajak ona tili fani o'qituvchilarining ona tili darslarida visual vositalardan foydalanish mazmunini atroflicha yoritib berish maqsad qilindi va tahliliy munosabat bildirildi.

Kalit so'zlar: *visual vositalar, visual vositalardan foydalanish, rasm va foftolar, kommunikativ-pragmatik metodlar, lingvistik, psixolingvistik, metodik tamoyillar.*

Annotation: *This article focuses on the use of visual aids in language teaching. It also provides an in-depth analysis today not only the issue of using visual aids in native language education is theoretically substantiated, but also its practical application is being implemented to varying degrees.*

The article aims to comprehensively cover the content of the use of the visual aids in native language lessons for future native language teachers and provides an analytical approach.

Keywords: *visual aids, use of visual aids, images and photographs, communicative-cognitive and cognitive-pragmatic methods, linguistic, psycholinguistic, methodological principles.*

XXI asr ta'lim jarayonida gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) asoslangan turli strategiyalar joriy etilmoqda. Shunday strategiyalardan biri audio-vizual materiallardan foydalanishdir. Audio-vizual materiallar texnologiyaga asoslangan ta'lim vositasi bo'lib, ESL o'rganuvchilar orasida ko'plab ijobiy natijalarni ko'rsatgan. Shu bois, ushbu strategiya ESL o'rganuvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, deb hisoblanadi⁴⁰.

Nazariy asoslar tahlili shuni ko'rsatadiki, rasmlar eng foydali va eng arzon vizual vositalardan biridir. Bir dona rasm biror narsa, joy yoki inson haqida beriladigan uzun tushuntirishning o'rnini bosishi mumkin. Rasm real obyektning butun mohiyati bilan jonli tarzda ifodalaydi va til o'rganish jarayonida obyekt, shaxs yoki joyni aniq tasvirlab beradi. Rasmlar tilning turli komponentlarini, ayniqsa yosh o'rganuvchilarga o'rgatishda juda qulay

⁴⁰ Kathirvel, K., & Hashim, H. (2020). The Use of Audio- Visual Materials as Strategies to Enhance Speaking Skills among ESL Young Learners. *Creative Education*, 11, 2599-2608. <https://doi.org/10.4236/ce.2020.1112192>

vizual vositadir⁴¹. Yosh o'rganuvchilar rasmlarga qarashni juda yaxshi ko'radilar va bu ularga til birliklarini oson va samarali o'rganishga yordam beradi⁴². Rasmlardan samarali foydalanish darsni jonli va qiziqarli qiladi, bu esa yosh o'quvchilarda motivatsiya va qiziqish uyg'otadi. Mueenning fikriga ko'ra, "rasmlar o'rganishni oson va yanada maroqli qiladi"⁴³. Rasmlar o'qituvchi va o'quvchi uchun o'rganishni yengillashtiradi, bundan tashqari, olingan ma'lumotning esda qolish darajasi ham ancha yuqori bo'ladi⁴⁴. Agar o'qituvchi biror narsani faqat so'z bilan tushuntirishda davom etsa, dars o'quvchilar uchun zerikarli va mashaqqatli bo'lib qoladi, natijada samarali o'rganish yuz bermasligi mumkin. Buning o'rniga, o'qituvchi darslikdagi rasmlardan muayyan grammatik tuzilmalarni yoki lug'aviy birliklarni o'rgatishda foydalansa, bu jarayonni yanada oson va qiziqarli qilishi mumkin⁴⁵.

Insonlar narsalarni boshdan kechirish orqali yaxshiroq o'rganishadi. Atrofdagi obyekt va hodisalarni besh sezgi organi orqali – ko'rish, ushlab, ta'm bilish yoki eshitish orqali – qabul qilishadi. Agar biror hodisa yoki obyekt ushbu sezgi organlaridan hech bo'lmaganda bittasining talabini qondirsa, inson uni oson va samarali o'rganadi. Shu ma'noda, rasm vizual modalitet talablarini qondiradi va natijada inson bunday narsalarni juda oson o'zlashtiradi⁴⁶. Rasmlar ma'noni yetkazishda juda keng qo'llanadi va ayniqsa ovqat, mebel kabi aniq lug'aviy birliklarni, shuningdek joy nomlari, kasblar, odamlarning tasviri, harakatlar va faoliyat turlari kabi so'z boyligini o'rgatishda juda foydalidir⁴⁷. Rasmlar yosh o'quvchilarning e'tiborini jalb qiladi⁴⁸ va shu tarzda ular til elementlarini samarali o'rganadi, bu esa bilimlarni uzoq vaqt davomida yodda saqlash imkonini beradi. Rasmlardan foydalanish biroz texnikani talab qiladi. O'qituvchi qachon, qayerda va qanday qilib ma'lum bir til komponentini o'rgatishda rasmlardan foydalanishni bilishi kerak. Agar o'qituvchi rasmlardan samarali foydalana olsa, dars o'qish va o'rganish jarayoni qiziqarli bo'ladi. Rasmlar kamroq tushuntirish va kamroq mehnat talab qiladi, bu nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchi uchun ham to'g'ri keladi⁴⁹.

Har doim haqiqiy obyektlarni ko'rish yoki tajriba qilish imkoniyati bo'lmaydi, lekin ularning illyustratsiyalari yoki rasmlari yordamida o'rganish mumkin. Rasmlar bu vazifani

⁴¹ Macwan, H. J. (2015). Using visual aids as authentic material in ESL classrooms. *Research Journal of English Language and Literature (RJELAL)*, 3(1), 91–96.

⁴² Sajjad Hussain, Dr. Haji Karim Khan (2022). The Role of Images in the Teaching and Learning of English: Practices, Issues, and Possibilities, [http://doi.org/10.47205/plhr.2022\(6-IV\)31](http://doi.org/10.47205/plhr.2022(6-IV)31), (338-348)

⁴³ Mueen, A. (1992). *English language teaching in Pakistan*. National Book Foundation.

⁴⁴ Aljuhani, R. S., & Maroof, N. (2019). Investigating EFL Students' Attitude toward the Use of Visual Aids in English Lectures. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 6(6), 30–36.

⁴⁵ Al Jawad, A. S. (2021). An Investigation of Using Audio-Visual Aids in the EFL Classes in Libya: A Case Study of Kufrah Secondary Schools. *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*, 4(3), 192–200.

⁴⁶ Petrovici, M. A. (2013). Effective Methods of Learning and Teaching: A Sensory Approach. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 93, 146–150. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.09.168>

⁴⁷ Muliati, N. I., & Aprizani, Y. (2020). The perception of using pictures to encourage students in comprehending vocabulary at the seventh grade of SMP Negeri 27 Banjarmasin. 8.

⁴⁸ Al'Omairi, T., & Al Balushi, H. (2015). The influence of paying attention in classroom on students' academic achievement in terms of their comprehension and recall ability. 2nd International Conference on Education and Social Sciences, Turkey.

⁴⁹ Kanwal, H. (2021). Perception of University Teachers and Students Regarding the Use and Effectiveness of Audio Visual Aids in their Daily Classroom Teaching. *Pakistan Social Sciences Review*, 5(IV), 726–736. [https://doi.org/10.35484/psr.2021\(5-IV\)55](https://doi.org/10.35484/psr.2021(5-IV)55)

juda samarali bajaradi va ular o'quvchilarga kontsepsiyalar, obyektlar yoki narsalarni samarali o'rganish va yodlashga yordam beradi. Rasmlar nafaqat bilimlarni saqlashga yordam beradi, balki ma'noni boshqalarga oson va samarali tarzda yetkazishga ham xizmat qiladi. Shu sababli rasmlarni til o'qitishda, xususan yosh o'quvchilar bilan ishlashda, samarali bilim uzatuvchi vosita deb atash mumkin. Supiyati ta'kidlashicha, audio-vizual materiallardan foydalanish o'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda eng mos va samarali usullardan biridir. Ushbu yondashuv o'quvchilarning gapirish qobiliyatida ko'plab ijobiy natijalarni bergan⁵⁰. Malayziya ta'lim tizimida 2017-yildan boshlab Yevropa tillarini baholashning umumiy mezonlari tizimi – CEFR (Common European Framework of Reference) asosidagi yangi o'quv dasturi joriy etildi. Ushbu dasturda gapirish ko'nikmasiga alohida e'tibor qaratilib, u avvalgi o'quv dasturlaridan farqli ravishda kundalik ta'lim jarayonida o'qituvchilar tomonidan baholanadigan ko'nikmaga aylandi. Shu sababli, audio-vizual materiallar o'rganuvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim yordamchi vosita sifatida qaralmoqda. Riri fikriga ko'ra, audio-vizual materiallar gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda eng ko'p va takroran qo'llaniladigan yozib olish (recording) vositalaridan biridir⁵¹. Boshqa tomondan, Francis audio-vizual materiallarni og'zaki belgilar yoki tilga tayanmasdan ma'noni ifodalash imkonini beruvchi o'quv materiallari sifatida izohlaydi⁵². Cakir fikriga ko'ra, audio-vizual materiallar xorijiy tilni o'rganish jarayonini rag'batlantirish va yengillashtirishda juda katta yordamchi vosita ekanligi barchaga ma'lum. Uning ta'kidlashicha, audio-vizual materiallardan foydalanilgan darslarda o'quvchilar til o'rganishga ko'proq qiziqish bildiradilar, diqqatini uzoqroq saqlab qoladilar hamda o'rganilayotgan bilimlarni real hayot bilan bog'lash imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, u so'nggi yillarda ingliz tili darslarida video materiallardan foydalanish kommunikativ yondashuvlarga bo'lgan talabning ortishi sababli keskin ko'payganini ham ta'kidlaydi⁵³. Hariyanto, Ramendra va Ratminingsih tadqiqotlarida keltirilishicha, audio-vizual materiallar o'rganuvchilarning ko'zi va qulog'ini jalb etuvchi jozibador vositalar bo'lib, o'qituvchilarga o'quvchilarni samarali o'qitishda yordam beradi⁵⁴. Subartha ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab, filmlar o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatishini, chunki ular nafaqat ko'rish va eshitish sezgilari, balki hissiyotlarga ham ta'sir etishini ta'kidlaydi. Bu esa to'g'ri munosabat va odatlarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi⁵⁵. Shuningdek, Madhuri audio-vizual materiallar gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda boshqa usullarga nisbatan

⁵⁰ Supiyati, D. Y. A. H. (2011). *Improving students' speaking skills by using audio-visual aids*. Unpublished undergraduate thesis, Sebelas Maret University.

⁵¹ Riri, I. S. (2011). *Teaching speaking through audio visual aids*. Bogor.

⁵² Francis, A. (2011). *Library experts speak on audio-visual material*. Lafia: UNESCO, World Day for Audio-Visual Heritage.

⁵³ Cakir, I. (2006). The use of video as an audio-visual material in foreign language teaching classrooms. *The Turkish Online Journal of Educational Technology*, 5, 67–72.

⁵⁴ Ramendra, D. P., & Ratminingsih. (2007). Pemanfaatan audio visual aids (AVA) dalam proses belajar mengajar mata pelajaran Bahasa Inggris di sekolah dasar. *Jurnal Penelitian dan Pengembangan Pendidikan*, 1, 79–95.

⁵⁵ Subartha, P. (2012). The audio-visual aids in English teaching. *National Conference on Developing Scenario in Applied Science and Communicative English*, Coimbatore.

eng samarali vositalardan biri ekanini alohida ta'kidlaydi⁵⁶. Uning fikricha, audio-vizual materiallar ta'lim jarayonida bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi kanallarini ishga solib, tovush va tasvir uyg'unligi orqali o'rganuvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi.

Vizual vositalardan foydalanish o'quvchilarga mavzuning mazmunini chuqur anglash, mavzular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Vizual materiallar yosh o'quvchilarni nutqqa undashga yordam beradi hamda ularning nutqiga mazmun baxsh etadigan kontekst yaratadi. Porter va Margaretning ta'kidlashicha, vizual materiallardan foydalanish nafaqat aytilayotgan fikrni yosh o'quvchilar uchun tu shunarli qiladi, balki uni yanada qiziqarli ham etadi⁵⁷. Biz o'rganadigan bilimlarning katta qismi vizual vositalar orqali qabul qilinadi, shu sababli ingliz tilini o'qitishda vizual materiallardan foydalanish juda muhim hisoblanadi, chunki ular axborotni uzoq muddatli xotirada mustahkamlashga yordam beradi⁵⁸. Vizual materiallar bilimning kelajakda esga tushishiga yordam beradi, bolalarning ishonchini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada aniq va tushunarli qiladi. O'quvchilar dars jarayoniga faol jalb etilganda, yangi so'zlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Vizual vositalarning asosiy afzalliklaridan biri – ularning samarali o'quv quroli sifatidagi funksiyasidir. Ingliz tili darsliklarida odatda rasmlar kabi vizual vositalar mavjud bo'lsa-da, o'qituvchilar qo'shimcha vizual materiallardan ham foydalanishlari lozim. Bu bolalar uchun foydali bo'lib, axborotni uzoq muddat saqlab qolishga yordam beradi.

Darhaqiqat, kognitiv tadqiqotlar inson miyasi tasvirlarni so'zlarga nisbatan tezroq qayta ishlashini hamda tasvirlar matnga qaraganda uzoq muddatli xotiramizda ko'proq saqlanib qolishini ko'rsatgan⁵⁹. Turli ijtimoiy qatlam vakillariga bir necha marta bosish orqali suratlar yaratish va ulashish imkonini beruvchi texnologiyalarning kengayishi natijasida bugungi dunyomiz vizual mediaga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berayotgandek tuyuladi. Agar biz tasvirlarni ko'rish jarayonini sekinlashtirib, har bir surat ortida yashiringan o'sha "mingta so'z"ni ochib tahlil qilsak-chi? Til o'qituvchilari sifatida biz ko'pincha o'quv materiallarining matnga oid talablariga – lug'at boyligi, sintaksis, diskurs va boshqa jihatlarga e'tibor qaratib, fotosuratlariga faqat matnni qo'llab-quvvatlagan holatdagina yuzaki nazar tashlashga moyil bo'lamiz. Lottie Baker tasvirlarni matnga shunchaki qo'shimcha unsur sifatida ko'rish o'rniga, obrazlarni ta'lim jarayonining markaziga qo'yishni va vizual media til o'rganish uchun taqdim etadigan imkoniyatlarni to'liq qabul qilishni taklif qiladi. Uning fikricha, fotografiyalar til faoliyatining barcha to'rt ko'nikmasi – tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha tilni faollashtirish salohiyatiga ega⁶⁰.

⁵⁶ Madhuri, J. N. (2013). Use of audio visual aids in teaching and speaking. *Research Journal of English Language and Literature*, 1, 108–122.

⁵⁷ Porter, P. and G. Margaret, 1992. *Communicating Effectively in English: Oral Communication for Non native Speakers*. 2nd ed. Boston: Heinle Publishers.

⁵⁸ Dorela Kaçaui Konomi "Fan S. Noli" University (Albania), Using Visual Materials in Teaching Vocabulary in English as a Foreign Language Classrooms with Young Learners, dorela_konomi@hotmail.com

⁵⁹ Levie, W. H., & Lentz, R. (1982). Effects of text illustrations: A review of research. *Educational Communications and Technology Journal*, 30(4), 195–232.

⁶⁰ LOTTIE BAKER United States, ENGLISH TEACHING FORUM, 2015, americanenglish.state.gov/english-teaching-forum

Vizual savodxonlik – bu ko‘rganlarimizdan ma‘no chiqarish hamda boshqalarga ochiq va yashirin xabarlarini yetkaza oladigan tasvirlarni yaratish kompetensiyasidir. Suratlar ba‘zan tushunishni qo‘llab-quvvatlash uchun, ya‘ni talabalar notanish so‘zlarni tushunchalar bilan tezda bog‘lay olishlari uchun tayanch (scaffolding) vositasi sifatida qo‘llaniladi⁶¹. Biroq tasvirlar bundan tashqari murakkab til faoliyatini rag‘batlantirish, talabalarni o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga undash salohiyatiga ham ega. Shu bois, vizual savodxonlik turli fan yo‘nalishlari bilan integratsiya qilinishi mumkin bo‘lsa-da, tasvirlar bilan ishlashga asoslangan faoliyatlar til o‘rganishga ayniqsa samarali hissa qo‘shadi. Vizual tasvirlarni tahlil qilish kengaytirilgan lingvistik nutqni rag‘batlantirishi mumkin. Suratlarini qanday idrok etishimiz mavjud sxemalarimizga bog‘liq bo‘lib, ular har birimizga xos bo‘lgan xotiralar va avvalgi tajribalar mahsulidir. Ko‘rgan narsamizni talqin qilish subyektiv bo‘lgani sababli, tasvirlarni tahlil qilish talaba-talaba o‘rtasida mazmunli o‘zaro muloqot uchun imkoniyat yaratadi. Ingliz tili darslarida tasvirlardan foydalanganda, talabalarni surat uyg‘otgan his-tuyg‘ularni bo‘lishishga yoki muayyan fotosuratlarini nima sababdan yoqtirishlari yoki yoqtirmasliklarini izohlashga undash lozim. Bunday og‘zaki muloqot haqiqatan ham kommunikativ xususiyatga ega bo‘ladi.

Tasvirni tushunishning odatda yagona yo‘li mavjud emas, fikr bildirish esa cheksiz shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tasvirlarni talqin qilish Bloom taksonomiyasida yuqori pog‘onalarda joylashgan baholash, sintez qilish va tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni talab etadi⁶². Ko‘pincha “tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari” deb ataladigan ushbu yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlar mavhum fikrlarni til orqali ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Vizual savodxonlikka yo‘naltirilgan faoliyatlar talabalar ushbu ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishiga yordam beradi. Masalan, vizual savodxonlikni rivojlantiruvchi ta’limiy usullar “Nima uchun” va “Agar shunday bo‘lsa-chi” kabi ochiq turdagi savollarni qo‘llashni talab qiladi, bunday savollar keng qamrovli javoblar va yuqori darajadagi tafakkurni taqozo etadi. Tasvirni ma’lum bir tarzda tushunish sabablarini asoslab berish talabalardan javob berishdan avval tasvirning muayyan jihatlarini tahlil qilishni va dalillarga tayangan holda fikr bildirishni talab etadi. Shunchaki tasvirni “yoqtiraman” yoki “yoqtirmayman” deb aytish vizual savodxonlik uchun yetarli emas, aksincha, talabalar vizual obrazlarda ifodalangan lug‘aviy birliklarni mavhum g‘oyalar yoki avvalgi tajribalar bilan bog‘lashga undaladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qitish metodlarining rang-barangligi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, B.Turg‘unov o‘zining “Til o‘rgatish metodikasi” nomli metodik qo‘llanmasi⁶³da ta’kidlaganidek, ona tilini o‘rganish jarayonida ko‘rgazmali vositalar, xususan, foto materiallardan foydalanish o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ta’limda vizual materiallardan unumli foydalanish muhim metodik yo‘nalishlardan biri bo‘lib bormoqda.

⁶¹ Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. (2002). *Bringing words to life: Robust vocabulary instruction*. New York: Guilford.

⁶² Bloom, B. S. (Ed.). (1956). *Taxonomy of educational objectives. Handbook 1: Cognitive domain*.

⁶³ Turg‘unov B. Til o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – B. 9–12.

Foto materiallar til o'rganish jarayonida dars mazmunini boyitish, tushunchalarni aniqroq yetkazish va mavzuni esda qolarli qilishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar suratlar orqali voqeani tasavvur qilishlari, so'zlarni kontekstda qo'llashni o'rganishlari mumkin. Ayniqsa, G.Qodirovaning "Pedagogik texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida ta'kidlanganidek, ilk (maktabgacha va boshlang'ich sinflarda) bosqichdagi o'quvchilar uchun rasmlar bilan ishlash, o'z fikrlarini tasvir asosida ifodalash til kompetensiyasini shakllantiradi.⁶⁴ N.Axmedova o'zining "Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar" nomli maqolasida foto materiallardan foydalanishda qo'llaniladigan bir qator metodik usullarni samarali hisoblab o'tadi va ularga quyidagi 4ta usulni sanab ko'rsatadi: 1) rasm asosida hikoya tuzish; 2) foto lavhadan so'z birikmalari yoki gaplar tuzish; 3) taqqoslash va tahlil qilish uchun turli fotosuratlarini berish; 4) foto asosida munozara yoki bahs tashkil etish. Bu yondashuvlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, mustaqil fikr yuritish va mantiqiy izchillikda gap tuzish ko'nikmasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlarga ko'ra, rasmlar topshiriqlardan foydalangan holda olib borilgan darslarda o'quvchilarning ifodali nutqi 27% ga faollashgan.⁶⁵ Masalan, "Tabiat go'zalligi" mavzusida turli fasllarga oid suratlar orqali fasllarni tavsiflash, ranglar, ob-havo, o'simliklar haqida so'z yuritish mumkin. Masalan, kuz fasliga oid suratda barglarning sariqligi, yomg'irli ob-havo, yerda yotgan barglar tasvirlangan bo'lsa, o'quvchilar bu tasvir asosida "Kuz manzarasi" mavzusida og'zaki tasvirlash matni tuzadilar. Bu bilan nafaqat leksik birliklarni, balki fasllar haqidagi umumiy bilimlarni ham takrorlash imkoniyati paydo bo'ladi.⁶⁶

Til o'rganishda asosiy maqsadlardan biri bu o'quvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdir. Foto materiallar aynan shu maqsadga xizmat qiladi, chunki ular asosida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tasvirlaydi va o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etishlari mumkin. Masalan, "Savdo rastalari" mavzusida o'quvchilarga bozor manzarasi aks etgan fotosurat berilganda, ular kundalik hayotda ishlatiladigan savdo terminlarini mustaqil tahlil qilgan va muloqot ko'nikmalarini amalda sinab ko'rishgan.⁶⁷ Foto materiallardan foydalanishning qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, ular darsni yanada qiziqarli va interfaol qilish imkonini beradi, bu o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etishga yordam beradi. Ikkinchidan, foto materiallar o'quvchilarning estetik va vizual tasavvurini rivojlantiradi. Ular tasvirlangan hodisalarni yoki obyektlarni yaxshiroq eslab qolishlari mumkin. Yana bir afzalligi shundaki, ular til o'rganish jarayonini ko'proq real hayot bilan bog'laydi, shuning uchun o'quvchilar o'z kundalik hayotidagi vaziyatlarni osonroq tushunishlari va shu bilan tilni o'rganish samaradorligini oshirishlari mumkin. Kamchiliklari esa, birinchidan, foto materiallarni har doim to'g'ri tanlash va taqdim etish qiyin bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda, suratlar noaniq yoki to'liq tushunarsiz bo'lishi mumkin.

⁶⁴ Qodirova G. Pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2021. 27–30-b

⁶⁵ Axmedova N. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. // Filologiya va tillarni o'qitish jurnali. – 2022. – №1. 46–47-b.

⁶⁶ Mamatqulov O. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. – 58–63-b.

⁶⁷ Xolboyeva L. Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuv. // Til va adabiyot ta'limi. – 2023. – №2. 24–25-b.

Ikkinchidan, ba'zan foto materiallar o'quvchilarga noto'g'ri tushunchalarni berishi yoki ularning e'tiborini boshqa tomonga qaratarkan, darsning maqsadiga to'liq xizmat qilmasligi mumkin. Shuningdek, ko'plab foto materiallar o'quvchilarda juda ko'p diqqatni jamlashni talab qilishi va bu dars jarayonining samaradorligini kamaytirishi mumkin.⁶⁸

So'nggi yillarda ona tilini o'qitish sohasida kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar texnologik yangiliklar, ilg'or pedagogik yondashuvlar hamda o'quvchi markazli ta'lim tamoyillarining uyg'unlashuvi asosida rivojlanmoqda. Ayniqsa, fotomateriallardan samarali foydalanish ta'lim jarayonini yanada jonli, mazmunli va ta'sirchan tashkil etishda muhim vositaga aylanmoqda. Bugungi kunda rasmlar, infografikalar, vizual hikoyalar va real hayotiy suratlar orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish, tasavvurini boyitish hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fotomateriallar yordamida o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglaydi, voqea-hodisalarni tahlil qiladi, tasvir asosida hikoya tuzadi va o'z fikrini erkin ifodalashga o'rganadi. Bu jarayonda raqamli platformalar va sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'qituvchiga individual yondashuvni amalga oshirish, o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojiga mos materiallarni tanlash imkonini bermoqda. Shuningdek, vizual materiallar multimodal o'rganishni qo'llab-quvvatlab, ko'rish, eshitish va nutq faoliyatini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kathirvel, K., & Hashim, H. (2020). The Use of Audio-Visual Materials as Strategies to Enhance Speaking Skills among ESL Young Learners. *Creative Education*, 11, 2599-2608. <https://doi.org/10.4236/ce.2020.1112192>
2. Macwan, H. J. (2015). Using visual aids as authentic material in ESL classrooms. *Research Journal of English Language and Literature (RJELAL)*, 3(1), 91–96.
3. Aljuhani, R. S., & Maroof, N. (2019). Investigating EFL Students' Attitude toward the Use of Visual Aids in English Lectures. *Journal of Applied Linguistics and Language Research*, 6(6), 30–36.
4. Al Jawad, A. S. (2021). An Investigation of Using Audio-Visual Aids in the EFL Classes in Libya: A Case Study of Kufrah Secondary Schools. *International Journal of Linguistics, Literature and Translation*, 4(3), 192–200.
5. Kanwal, H. (2021). Perception of University Teachers and Students Regarding the Use and Effectiveness of Audio Visual Aids in their Daily Classroom Teaching. *Pakistan Social Sciences Review*, 5(IV), 726–736. [https://doi.org/10.35484/pssr.2021\(5-IV\)55](https://doi.org/10.35484/pssr.2021(5-IV)55)
6. Supiyati, D. Y. A. H. (2011). *Improving students' speaking skills by using audio-visual aids*. Unpublished undergraduate thesis, Sebelas Maret University.
7. Riri, I. S. (2011). *Teaching speaking through audio visual aids*. Bogor.

⁶⁸ Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4. – 33–35-b.

8. Francis, A. (2011). *Library experts speak on audio-visual material*. Lafia: UNESCO, World Day for Audio-Visual Heritage.
9. Cakir, I. (2006). The use of video as an audio-visual material in foreign language teaching classrooms. *The Turkish Online Journal of Educational Technology*, 5, 67–72.
10. Ramendra, D. P., & Ratminingsih. (2007). Pemanfaatan audio visual aids (AVA) dalam proses belajar mengajar mata pelajaran Bahasa Inggris di sekolah dasar. *Jurnal Penelitian dan Pengembangan Pendidikan*, 1, 79–95.
11. Subartha, P. (2012). The audio-visual aids in English teaching. *National Conference on Developing Scenario in Applied Science and Communicative English*, Coimbatore.
12. Madhuri, J. N. (2013). Use of audio visual aids in teaching and speaking. *Research Journal of English Language and Literature*, 1, 108–122.
13. Dorela Kaçauni Konomi “Fan S. Noli” University (Albania), Using Visual Materials in Teaching Vocabulary in English as a Foreign Language Classrooms with Young Learners, dorela_konomi@hotmail.com
14. Levie, W. H., & Lentz, R. (1982). Effects of text illustrations: A review of research. *Educational Communications and Technology Journal*, 30(4), 195–232.
15. Beck, I. L., McKeown, M. G., & Kucan, L. (2002). *Bringing words to life: Robust vocabulary instruction*. New York: Guilford.
16. Turg'unov B. Til o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 9–12.
17. Qodirova G. Pedagogik texnologiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2021. 27–30-b.
18. Axmedova N. Ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar. // Filologiya va tillarni o'qitish jurnali. – 2022. – №1. 46–47-b.
19. Mamatqulov O. Vizual vositalardan foydalanish metodikasi. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2020. – 58–63-b.
20. Xolboyeva L. Ona tilini o'qitishda integrativ yondashuv. // Til va adabiyot ta'limi. – 2023. – №2. 24–25-b.
21. Musurov Sh. O'quvchilarni foto materiallar bilan ishlashga o'rgatish. // Ta'lim texnologiyalari. – 2021. – №4 . 33–35-b.